

NAQD PUL MUOMALASI BO'YICHA SHARH


Qisqa tavsif
Fevral - 2026

2025-yil mobaynida naqd pul muomalasini tashkil etishda asosiy e'tibor banklarga kelib tushgan naqd pullar va naqd puldagi to'lovlar hajmidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda talabni yetarli miqdorda naqd pullar bilan ta'minlab borishga, muomaladagi naqd pullarning sifatini yaxshilash va eski namunadagi banknotlarni muomaladan qisqartirishga, banklar o'rtasida naqd pullarning qayta taqsimlanishida Markaziy bankning ishtirokini kamaytirish va erkinlashtirishga qaratildi.

Naqd pul muomalasiga doir ko'rsatkichlar dinamikasi

- 2025-yilda banklar orqali umumiy pul tushumlari 1 075 trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotning naqd pulga bo'lgan talabini to'liq qoplash imkonini berdi.
- Terminal va mobil ilovalar orqali tushumlar ulushi 40 foizdan 43 foizga oshdi. Savdo va xizmatlar sohasida esa bu ko'rsatkich 48 foizga yetdi.
- 2025-yilda banklar orqali naqd pul aylanmasi 1 250 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 24 foizga oshdi.
- Banklarga kelib tushgan naqd pullar hajmi 615 trln so'm bo'lib, asosan bank xizmatlari (60 trln so'm), savdo (25 trln so'm) va pullik xizmatlar (16 trln so'm) hisobiga o'sdi.


Umumiy pul tushumlari tarkibi va dinamikasi



Naqd pul aylanmasi

- Bank kassalari va bankomatlar orqali berilgan naqd pullar hajmi 635 trln so'mni tashkil etdi va yil davomida 125 trln so'mga oshdi.
- Bank kartalaridan naqd pul yechish hajmi 54 trln so'mga, omonatlardan yechib olish 18 trln so'mga oshdi. Bank kartalariga tushgan mablag'lar 1,4 barobarga ko'paydi.

Bank kassalari (shu jumladan, bankomatlar)dan berilgan naqd pullar va ularning yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi




Muomaladagi naqd pullar

- Naqd pullar tushumi va chiqimi o'rtasidagi farq Markaziy bank tomonidan qoplandi.
- 2025-yilda Markaziy bank tomonidan muomalaga 16,8 trln so'm qo'shimcha naqd pullar chiqarildi. Natijada naqd pullarning pul massasidagi ulushi 18,1 foizni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 foizga kamaydi.

Muomaladagi naqd pullarning nominal qiymati bo'yicha tarkibi

- Muomaladagi banknotlar soni 2 445,7 mln donaga yetdi. 200 ming so'mlik banknotlar ulushi 28,5 foizga oshib, 100 ming so'mlik banknotlar ulushi 36,4 foizga kamaydi.

Muomalaga chiqarilgan banknotlar va tangalarning nominal qiymatlari bo'yicha ulushi (foizda)



Eski namunadagi banknotlar ulushi keskin kamaydi:

- 5 000 so'mliklarda 25 foizdan 7 foizga,
- 10 000 so'mliklarda 24 foizdan 5 foizga,
- 50 000 so'mliklarda 25 foizdan 4 foizga,
- 100 000 so'mliklarda 18 foizdan 3 foizga tushdi.

Banklararo naqd pul harakatini erkinlashtirish

2025 yilda "Naqd pullarning elektron maydoni" platformasi foydalanuvchilari soni 1009 tani tashkil etib, o'rtacha bir oyda 15 trln so'mlik operatsiyalar amalga oshirildi.